

## MAMLAKATIMIZDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Qarshiboyev Jahongir Abdulatifovich  
Toshkent moliya instituti

Ilxamova Yodgora Saydaxmedovna  
Toshkent moliya instituti, Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot kafedra mudiri  
iqtisod fanlari nomzodi, professor

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi amaldagi pul muomalasi siyosatining tahlili, yurtimizda elektron pullar va to'lovlar tizimini tayada takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan fikr almashilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan elektron pul muomalasi amaliyotini yanada keng joriy etish bo'yicha ijrochi organ sifatida Markaziy bank faoliyatining tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron pullar, elektron hamyon, emitent, ayirboshlash operatsiyalari, bank kartalari, to'lov, pul-kredit siyosati.

### KIRISH

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmogda. Har bir sohada bugungi globallashtirish jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlar davom etmogda. Xususan yurtimizda faoliyat yuritayotgan banklarda elektron pullar bilan ishlash amaliyotini yanada takomillashtirish, aholi o'rtasida soda tushunarli bo'lgan elektron to'lovlar muhitini yaratish masalalari kundan – kunga o'z tasdig'ini topmogda.

Shu o'rinda elektron pul o'zi nima degan savolga javob bersak: Axborotni o'z ichiga olgan va to'lovchilarga to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek to'lovchilar bilan elektron to'lov vositalarining emitenti o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan bank kartasi yoki boshqa elektron jism elektron to'lov vositasidir. Elektron pullar – elektron shakldagi naqd pul hisoblanadi. Ular hamyonlarda saqlanadi. Pul qiymati onlayn shaklda bo'ladi va milliy valyutaga bog'lanadi.

Onlayn bank tizimlari elektron pullar bilan operatsiyalarni osonlashtiradi va pulga oson, doimiy kirish imkonini beradi.

Elektron pullar texnologik yechimlarga asoslangan holda to'lovlarni tezkor va qulay usulda amalga oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, bu turdagi pullar naqd pulga elektron muqobildir.

O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"45gi Qonunini qabul qilinishi elektron pullar muomalasini, jumladan, ularni chiqarish, foydalanish va qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning huquqiy asosini yaratib berdi. Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, ularning muomalasini boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgaridek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas"

Shuning uchun ham hozirgi davrda dolzarb masalalardan biri bo'lgan tijorat banklari ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlovchi himoya vositalarini tahlil qilish va ishonchli himoyalash tizimlarni aniqlash vazifasi qo'yildi. Ishlab chiqarishga elektron to'lov tizimlarining joriy etilishi undagi ma'lumotlarni ishonchli himoyalash zaruriyatini ham keltirib chiqardi. Ushbu muammoni hal qilish uchun zamonaviy himoya vositalarni ishlatishga to'g'ri keladi.

Qo'yilayotgan masalaning dolzarbligi shundaki, bank sohasiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlar qiymati pul (naqd pullik yoki naqd pullarsiz) ma'lumotlariga aloqadordir. Ularning himoya va daxlsizligini ta'minlash esa har doim ham eng dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari tijorat banklarigagi ETTga yangi axborot texnologiyalari asosidagi himoya vositalarini qo'llash samaradorligini baholash ham bugungi kunning talabidir.

Elektron to'lov vositasini chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs elektron to'lov komissiyasining emitentidir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Elektron pullar va elektron to'lovlar tizimini mamlakatda imkon boricha oson va tushunarli holda tatbiq etish nafaqat tijorat banklari istiqbolini ta'minlaydi, balki butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buni amalga oshirish uchun oldimizda turgan vazifalar va qiyinchiliklarni samarali va belgilangan muddatlarda hal etilishi lozim. Quyida bir qator tadqiqotchilarning elektron pullar, elektron to'lovlar va pulkredit siyosati borasidagi fikrlarini tahlil qilamiz.

Jahongir Qayumovning ta'kidlashicha: "Elektron pullarni ko'pincha kriptovalyuta bilan chalkashtiradilar. Aslida u faqat elektron tizimda muomalada bo'ladigan so'mning ekvivalentidir.

O'zbekistonda elektron pullar uchun normativ-huquqiy baza 2019-yil noyabr oyida – "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan shakllana boshladi. Bugun ular vositasida tovarlar va xizmatlar haqini bemalol to'lash mumkin. Yagona sharti: sotuvchida – elektron hamyon, xaridorda esa elektron hamyon va elektron pul to'lovlari uchun maxsus ilova bo'lishi kerak".

Xurshidjon Ne'matullayevning muallifligida chop etilgan maqolaga ko'ra: - "Elektron pul kartalarda, qurilmalarda yoki serverda saqlanishi mumkin. U alohida valyuta emas va banklar tomonidan nazorat qilinadi.


Bu turdagi pullar rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladi va rivojlanayotgan mamlakatlarda tobora ko'proq foydalanilmoqda.

Dastavval elektron pul egasi identifikatsiyadan o'tgandan keyin ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Elektron pulning asosiy afzalliklaridan biri bu — bankga borib bank hisobvaraçasini ochmasdan turib to'lovni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi. Bundan tashqari pul mablag'laridan tezkor ravishda foydalanish mumkin.

Elektron pullardan foydalanib mobil operatorlar uchun, kommunal, davlat xizmatlari va boshqa to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari bu turdagi pullar orqali xorijiy valyutada emissiya qilingan elektron pulni ayirboshlash imkoniyati mavjud”.



1-chizma. Bank kartalarining tavsifi

Journalist Oleg Zamanov tadqiqotlariga ko'ra: "Elektron pullar faqat milliy valyuta - so'mda nominallashtirilgan bo'lishi kerak. Markaziy bank va banklar (emitentlar) ularni ularning nominal qiymatiga teng bo'lgan pul mablag'lari summasiga almashtirishga chiqaradi. Jismoniy va yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va elektron pullar tizimi agentlari elektron pullarning egalari bo'lishi mumkin. Jismoniy shaxslar elektron pullarni to'g'ridan-to'g'ri emitentdan yoki elektron pullar tizimining operatori yoxud agenti orqali oladilar.

Tegishli litsenziyaga ega bo'lgan va elektron pullar tizimining ishlashini ta'minlaydigan bank yoki boshqa tashkilot elektron pullar tizimining operatori bo'lishi mumkin. Operator elektron pullar emitenti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq tizimning faoliyat ko'rsatish qoidalarini belgilaydi. Emitent va operator elektron pullarga ruxsatsiz ega bo'lish va (yoki) ulardan ruxsatsiz foydalanganlik, shuningdek emitentning dasturiy ta'minoti ishidagi yoxud tizimning faoliyat ko'rsatishidagi xatolar yoki uzilishlar oqibatida elektron pullar egasiga yetkazilgan zarar uchun uning egasi oldida javobgar bo'ladi”.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur maqolada O'zbekistonda elektron pullar va to'lovlar tizimini joriy etishda amalga oshirilayotgan keng – ko'lamli amaliy ishlar tahlil qilingan. Mazkur tahlil jarayonini yanada tushunarli va aniq bo'lishi uchun maqolada chizmalar va jadvallar usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi:

“To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi qonuni asosida “O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari” ishlab chiqilib, Adliya vazirligida 2020-yil 29-aprelda 3231-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi”.



Mazkur hujjat jahon tajribasiga tayangan holda, elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Unda elektron pullar tizimiga oid asosiy tushunchalar, shu jumladan, "ayirboshlash operatsiyasi", "bir va ko'p emitentli elektron pullar tizimi", "oldindan to'langan karta", "elektron pullar tizimining agenti", "elektron hamyon" va sohaga oid boshqa terminlarga batafsil tushuntirishlar berilgan.

O'zbekistonda elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalarining ayrim jihatlari:

- Elektron pullar - elektron hamyon shaklida yoki oldindan to'langan karta (prepaid card) ko'rinishida emitent, operator yoki elektron pullar tizimining agenti tomonidan foydalanuvchiga beriladi;
- O'zbekiston hududida emitent tomonidan chiqariladigan elektron pullar faqat milliy valyuta - so'mda nominallashtirilgan bo'lishi shart;
- O'zbekiston hududida realizatsiya qilingan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda faqat Respublika hududida chiqarilgan elektron pullar qabul qilinadi;
- Xorijiy emitent tomonidan chiqarilgan, chet el valyutasida nominallashtirilgan elektron pullarni ayirboshlash operatsiyalari mazkur sub'ekt bilan shartnomasi mavjud bo'lgan o'zbekistonlik emitent tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekistonda, elektron pullar tizimining yaratilishi hisob-kitoblarni amalga oshirishda zamonaviy IT va texnologik yechimlarga asoslangan holda to'lovlarni tezkor va qulay usulda amalga oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonda, elektron pullar tizimining yaratilishi hisob-kitoblarni amalga oshirishda zamonaviy IT va texnologik yechimlarga asoslangan holda to'lovlarni tezkor va qulay usulda amalga oshirish imkonini beradi.

- agar shartnomada boshqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, elektron pullar kelib tushgan kun davomida yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs bank hisob varag'iga o'tkaziladi;
- jismoniy shaxs bank hisob varag'iga o'tkaziladi yoki unga naqd pul beriladi. Elektron pullar jismoniy shaxslar uchun quyidagi qulayliklarni beradi:
  - Xaridor jismoniy shaxs elektron hamyonni uyali aloqa telefoni raqamiga ochishi mumkin;
  - To'g'ridan-to'g'ri elektron hamyon orqali muomala qilinadi (tegishli bank vositachilik haqi ushlab qolinmaydi, xarajatlar kamayadi);
  - Elektron hamyon egasi identifikatsiya qilinishi yoki identifikatsiya qilinmasligi mumkin;
  - Identifikatsiya qilingan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta operatsiyaning eng ko'p summasi 100 BHMga teng bo'lgan summadan oshmasligi kerak;
  - Identifikatsiya qilinmagan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta operatsiyaning eng ko'p summasi 1 BHMga teng bo'lgan summadan oshmasligi kerak;
  - Identifikatsiya qilinmagan elektron pullarning egasi bo'lgan jismoniy shaxsning bitta elektron hamyonida (qurilmasida) saqlanadigan elektron pullarning eng ko'p summasi 5 BHMga teng bo'lgan summadan oshmasligi kerak.

2-jadval. Elektron pullar tizimlari reyestri

Elektron pullar tizimlari reyestri				
№	Elektron pullar tizimi nomi	Operator nomi	Emitent nomi	Elektron pullar chiqarish bo'yicha faoliyati boshlangan sana
1	«OSON»	"BRIO GROUP" MCHJ	«Turkiston» XATB	16.06.2020 y.
2	«E-CARD»	"INSPIRED" MCHJ	ATB «Universal bank»	21.08.2020 y.
3	«CLICK»	"CLICK" MCHJ	«Agrobank» ATB	21.08.2020 y.
4	«WOOPPAY»	"WOOPPAY UZ" MCHJ	«Kapitalbank» ATB	02.11.2020 y.
5	«alif.mobi»	"ALIF TECH" MCHJ	AT «Aloqabank»	02.11.2020 y.
6	«Interpay»	"Interpay sys" MCHJ	«Kapitalbank» ATB	28.07.2021 y.
7	«A-pay»	"CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" MCHJ	«Bank Apelsin» AJ	01.07.2022 y.

Yuqorida jadval orqali mamlakatimizda 2021-yil davomida muomalada bo'gan elektron pullarning harakatini kuzatishimiz mumkin. Bunda elektron hamyonlar soni mos ravishda ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

To'lov tizimining funktsiyalari bank kartalari yordamida pul mablag'larining barqaror aylanishidan iborat. Plastik karta bilan to'lovni amalga oshirayotganda, maxsus terminal xaridorning pul mablag'larini o'z bankiga o'tkazish to'g'risida so'rov yuboradi va u erdan kerakli miqdorni sotuvchining hisobiga o'tkazadi. Barcha hisob-kitoblar real vaqt rejimida amalga oshiriladi va 10 soniyadan oshmaydi. Davlat ichida, kredit muassasasi ichida va davlatlar o'rtasidagi pul muomalasini boshqaruvchi ko'plab to'lov tizimlari mavjud. Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun elektron to'lov tizimlari ham mavjud.

Xalqaro to'lov tizimlari barcha mamlakatlardagi moliyaviy aylanmalarga kirishni ta'minlaydi, bu fuqarolarga hududlar va hududlarni hisobga olmagan holda xaridlar va xizmatlar uchun haq to'lashga imkon beradi. Bu to'lov tizimining eng xavfsiz turi. Eng zamonaviy kompyuter texnologiyalari doimiy ravishda yangilanib turadigan va firibgar hujumlarga qarshi turishga yordam beradigan va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligining yuqori darajasini ta'minlaydigan xalqaro tizimlarga xizmat ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Tarmoq ichidagi pul oqimlarini o'tkazish uchun yaratilgan to'lov tizimlari maxsus texnologiyalarning an'anaviy tizimlaridan farq qiladi. Ikkala xalqaro to'lov tizimlarining haqiqiy kartalariga bog'langan to'lov tizimlari va virtual kartalardan foydalanadigan tizimlar mavjud. Onlayn tizimlarning ishlash printsipi odatdagilarga o'xshaydi - har bir ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi hisob oladi - mablag'ni saqlash yoki xaridlarni to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan elektron hamyon.

Elektron to'lov tizimlaridan foydalangan holda, kishi quyidagi imtiyozlarga ega bo'ladi:

- Tovarlarini sotib olish va boshqa operatsiyalarning tezkorligi;
- Haqiqiy do'konlarga nisbatan kam komissiya;
- Elektron hamyonni ochish qulayligi;
- Daromad va xarajatlarning to'liq nazorati.

### XULOSA

Bugungi kunda O'zbekistonda elektron to'lov tizimlari joriy etish va takomillashtirish izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Internet orqali xizmatlar yoki tovarlar uchun to'lovlarni amalga oshirish har bir fuqaro uchun samarali qulayliklarini namoyon etmoqda. Bugungi texnologiyalar asri elektron hamyonlar va elektron pullar bilan ishlashning mutlaqo normal, hatto kundalik va bizning yangi haqiqatimizga aylantirdi.

Elektron pullarning asosiy afzalliklaridan biri, bank hisobvarag'ini ochmasdan turib to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi va tezkor tizimning yo'lga qo'yilganligidadir. Shu bilan birga to'lovlarni amalga oshirayotgan paytda vositachilik haqining boshqa to'lov vositalariga qaraganda arzonligi hisoblanadi.

Ayni paytda elektron hamyonlar yordamida mobil operatorlar, kommunal to'lovlar, televideniya va taksi xizmatlari uchun o'tkazmalarni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga elektron puldan foydalanib, xorijiy valutada emissiya qilingan elektron pullarni ayirboshlash imkoniyati ham mavjud.

### REFERENCES

1. Ахмедов, Б. А. (2021). Таълимда ахборот технологиялари фанининг модулларини ўқитишда кластерли-инновацион технологиялардан фойдаланиш тамойиллари. O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 441.
2. Akhmedov, B. A. (2023). Improvement of the digital economy and its significance in higher education in tashkent region. Uzbek Scholar Journal, 12, 18-21.
3. Akhmedov, B. A. (2023). Innovative pedagogical technologies in the modern educational system. World Bulletin of Social Sciences, 19, 107-112.
4. Akhmedov, B. A. (2022). Use of Information Technologies in The Development of Writing and Speech Skills. Uzbek Scholar Journal, 9, 153-159.
5. Akhmedov, B. A. (2022). Psychological and pedagogical possibilities of forming tolerance in future teachers. Uzbek Scholar Journal, 11, 289-295.
6. Akhmedov, B. A. (2023). Methods to increase algorithmic thinking in primary education. Uzbek Scholar Journal, 12, 22-26.
7. Ахмедов, Б. А. (2023). Интеграллашган таълимда талабалар билимларини виртуал тест назорат қилиш тизимларини ишлаб чиқиш концепцияси. PEDAGOG, 1(5), 86-92.
8. Akhmedov, B. A. (2022). Principles of Developing the Professional Competence of Future Teachers on the basis of a Cluster Approach. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 760-770.
9. Seitniyazov, K. M. (2023). Some traditional names in Toponymics. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(4), 842-845.



10. Махмудова, Д. М., & Мирхалилова, Н. А. (2021). ТАЛАБАЛАРДА МАТЕМАТИК САВОДҲОНЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ. *Scientific progress*, 2(4), 476-480.
11. Абдужаббарова, Ф. А. (2020). Бошланғич таълимда PRILS- халқаро баҳолаш дастурига тайёрланиш усуллари. *Мактаб ва ҳаёт*, 1(1), 27-28.
12. Abdujabbarova, F. A. (2020). The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 1637-1641.
13. Abdujabbarova, F. A. (2020). Teaching Uzbek Language and Literature Based on Interactive Technologies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 20(2), 2555-2558.
14. Abdujabbarova, F. A. (2020). Historical and cultural background od typological study Russian and Uzbek literature. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 2555-2558.